https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Azamatova Farzona Azizjon qizi
Namangan davlat universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs talabasi
E-mail: azamatovafarzona@gmail.com
Sattarova Gulnoza Xabibullayevna
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
e-mail: gulnozasattarova1985@gmail.com

MILLIY TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI HAMDA KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISH YO'LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida transport-logistika tizimining ahamiyati, ayniqsa, sohani rivojlantirishda kadrlarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda transpot-logistika tizimini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda soha uchun mutaxassilar tayyorlash sifatini oshirish yo'llari asosiy guruhda iqtisodiy–infratuzilmaviy, iqtisodiy-hududiy, iqtisodiy–innovatsion, tashkiliy–innovatsion va iqtisodiy-ekologik omillar tizimida o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonning so'nggi yillardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlari asosida transport-logistika tizimining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va tarkibiy o'zgarishlar dinamikasi tahlil qilingan.

Kirish so'zlar

iqtisodiy integratsiya, transport-logistika, modernizatsiya, raqamli texnologiyalar, raqamli yechim, transport infratuzilmasi, texnologiya, bandlik.

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МОДЕРНИЗАТSIИ НАТSIОНАЛЬНОЙ ТРАНСПОРТНО-ЛОГИСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ И ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА

Аннотация

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

В данной статье проводится анализ значения транспортно-логистической системы в экономике Узбекистана, с особым акцентом на роль и значение кадрового потенциала в развитии отрасли. В исследовании рассматриваются факторы, влияющие на развитие транспортно-логистической системы, а также пути повышения качества подготовки специалистов для данной сферы. Указанные факторы анализируются в системе экономико-инфраструктурных, экономико-территориальных, экономико-инновационных, организационно-инновационных и экономико-экологических факторов. Кроме того, на основе макроэкономических показателей Узбекистана за последние годы проанализированы доля транспортно-логистической системы в валовом внутреннем продукте и динамика структурных изменений отрасли.

Ключевые слова

экономическая интеграция, транспортно-логистическая система, модернизация, цифровые технологии, цифровые решения, транспортная инфраструктура, технологии, занятость.

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERNIZING THE NATIONAL TRANSPORT AND LOGISTICS SYSTEM AND WAYS TO ENHANCE HUMAN RESOURCE CAPACITY

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the importance of the transport and logistics system in the economy of Uzbekistan, with particular emphasis on the role and significance of human resources in the development of the sector. The study examines the factors influencing the development of the transport and logistics system, as well as ways to improve the quality of specialist training for the industry. These factors are analyzed within a structured framework that includes economic–infrastructural, economic–territorial, economic–innovative, organizational–innovative, and economic–ecological dimensions. In addition, based on Uzbekistan’s macroeconomic indicators in recent years, the article

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

analyzes the share of the transport and logistics system in gross domestic product and the dynamics of structural changes within the sector.

Keywords

economic integration, transport and logistics, modernization, digital technologies, digital solutions, transport infrastructure, technology, employment.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotida transport-logistika sohasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda xizmatlar sektorida transport-logistika iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanib, O’zbekiston uchun mazkur yo’nalishning dolzarbligi strategik geografik joylashuv, tranzit salohiyati, zamonaviy bilimlarni egallagan mutaxassislarni tayyorlash iqtisodiy islohotlar bilan bevosita bog’liqdir. Xususan, yuk tashish sohalarida raqamli yechimlarning keng qo’llanishi, bozor talabining tez o’zgarishi logistika tizimining uzluksiz modernizatsiyasi hamda mutaxassislar salohiyatini oshirishni talab etmoqda. Shu bois, ushbu sohada tashqi muhitdagi hamda iqtisodiy islohotlardagi kichik o‘zgarishlar ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, soliq yukining kamaytirilishi, kredit resurslarining arzonlashuvi yoki bojxona tartib-tamoyillarini soddalashuvi, qolaversa soha mutaxassilariga (ayniqsa, o’rta bo’g’in mutaxasisilari) bo’lgan yuqori ehtiyoj sohaga bevosita ta’sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, transport-logistika sohasini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish va ularning amaliy ahamiyatini ochib berish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zgarish, bozor talablariga moslashish, innovatsiya, sifat, infratuzilma, omborlash, taqsimot, axborot oqimi, raqamli va yashil logistika, inson kapitali va raqobatbardoshlik-zamonaviy transport-logistika rivojlantirishga oid asosiy tushunchalardir. Jahon iqtisodiyotida xizmat turlarining kengayishi, aholining turmush darajasi o‘sishi, mamlakatlararo transport-logistika sohasiga hamda inson kapitaliga bo‘lgan ehtiyoji ortishi natijasida mahalliy va xalqaro transport-logistika sohasi alohida tadqiqot ob’yektiga aylandi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatning iqtisodiy o‘sishida transport-logiistika tizimining ta’sirini ishlab chiqqan birinchi olimlardan biri buyuk klassik iqtisodchi Adam Smit (1723-1790) bo'lib, u birinchilardan bo'lib transport bozorlar kengayishining asosiy omillaridan biri ekanini ta'kidlagan. Mehnat taqsimoti darajasi bozor hajmi bilan bevosita bog‘liq. Bozor hajmini esa transport tizimining rivojlanganlik darajasi belgilaydi. Transport yaxshi rivojlangan hududlarda mahsulotlarni uzoq masofaga yetkazish imkoni paydo bo‘ladi. Ixtisoslashuv kuchayadi, xizmat ko‘rsatish turlari ko‘payib boradi. Transport xarajatlari yuqori bo‘lsa, mahsulot narxi oshib ketadi, past transport xarajatlari raqobatni kuchaytiradi, transport xizmatlari samaradorligi tovar aylanmasini tezlashtiradi, deya ta’rif beradi[1].

Jahon miqyosida tan olingan menejment nazariyasi asoschisi, iqtisodchi va jamoatshunos olim Piter Druker (Peter Ferdinand Drucker, 1909–2005) -xizmat ko‘rsatish, logistika hamda iqtisodiy rivojlanishga oid asosiy g‘oyalarni tizimli tarzda bayon etgan[2]. Shuningdek, olimning fikriga ko‘ra, logistika iqtisodiyotdagi oxirgi katta samaradorlik zaxirasi bo‘lib, logistika xarajatlarini yuqori ulushga ega ekanligi, xizmatlar sifati logistikaga bog‘liqligi hamda samarali logistika raqobat ustunligi berishini isbotlab bergan. Shu bilan birga, olim bilimli xodim (knowledge worker) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, zamonaviy iqtisodiyotning asosiy resursi-bilim, inson kapitali xizmat ko‘rsatish sohasida hal qiluvchi ahamiyatga egaligini ilgari surgan.

Yuqoridagi g’arb olimlarining fikrlaridan tashqari, rus iqtisodchi olimlar B.A.Anikin., L.B.Mirotin., V.I.Sergeev va A.M.Gadjinskiylarning[3] tadqiqot ishlarida logistika-moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish orqali minimal xarajat bilan maksimal samaraga erishish tizimi ekanligiga to’xtalib o’tilganini ko’rishimiz mumkin.

[1] Adam Smit (1776 y) An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations
[2] Piter Druker. (2000y) Logistics and Supply Chain Management.
[3] Б.А.Аникин. (2013 г) Основы логистики.А.М.Гаджинский (2007 г) учебник Логистика. Л.Б.Миротин (2010 г) Инновационные процессы в логистике.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shuningdek, Z.Qo‘chqarov va G‘.Samatov raqamli iqtisodiyot va innovatsion yondashuvlarni xizmatlar sektorida logistika sohasining yangi o‘sish drayveri sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, logistika tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda sohada kadrlarga bo‘lgan e’tiborni oshirish nafaqat xizmatlar sifatini oshiradi, balki bozor raqobat muhitini ham mustahkamlaydi[4].

METODOLOGIYA

Maqolani yozishda ilmiy bilishning zamonaviy usullari, jumladan statistik, qiyosiy tahlil va sintez usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Global iqtisodiy integratsiya sharoitida transport va logistika tizimining samaradorli faoliyati mamlakatlar o’rtasidagi tovar almashinuvi, eksport salohiyatining yuksalishi uchun muhim omillardan biriga aylanmoqda. Shu kabi sohalarni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Transport va logistika infratuzilmasini raqamlashtirish orqali tashish jarayonlari tezlashtiriladi, yo’lovchi va yuk oqimlarini real kuzatish imkoniyati paydo bo’ladi, avtomatlashtirilgan tizimlar ortiqcha hujjatbozlikni yo‘q qiladi, barcha ma’lumotlar o’zgartirishlarsiz real yoziladi, mijoizlar kelayotgan yukalrini kuzatib turishlari mumkin va shuningdek, yillar davomida yig’ilgan ma’lumotlardan aniq prognozlar qilish imkoniyatini yaratadi. So’nggi yillarda barcha sohalarda raqamli transformatsiyaga va ularni boshqaruvchi kadrlar tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Xuddi shunday sohalardan biri transport-logistika tizimi hisoblanadi. Bu borada logistika tizimini rivojlantirish va shu sohada yetarli kadr va mutaxassislar yetishtirib chiqarish bo’yicha “Uzbekiston-2030” strategiyasida ham bir qator maqsad va vazifalar belgilab qo’yilgan.

[4] Z.Qo‘chqarov (2015 y) “Raqamli iqtisodiyot logistikasi” mavzusida davra suhbatida ma'ruzasi. G’.Samatov (2025 y) “YAQIN KELAJAKDA LOGISTIKA SOHASIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR” nomli maqolasi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xususan, yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini 3 barobar oshirish, elektrlashgan temiryo‘llari ulushini 65 foizga yetkazis, aviaqatnovlar sonini 4 barobarga oshirish, 56 ming kilometr yo‘llarni qurish va ta’mirlash, tuman markazlaridan qishloq aholi punktlarigacha jami 5,5 ming kilometr sement-beton qoplamali yo‘llar qurish [1].

Shu bilan birga joriy yilning 09 oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan "Markaziy Osiyo - Rossiya" formatidagi ikkinchi sammitda ishtirok etib, strategik sheriklikni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va mintaqaviy barqarorlikni birgalikda ta’minlashga qaratilgan ko‘plab tashabbuslarni ilgari surdi [2].

Xususan, tovar ayirboshlashni ko‘paytirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish jarayonlarini yengillashtirish maqsadida “Markaziy Osiyo – Rossiya agroekspressi” loyihasini ishga tushirishni taklif qildi. Ushbu loyiha so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan transport-logistika va eksport sohasidagi yirik xalqaro tashabbuslardan biri bo‘lib, u Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Rossiya bozoriga oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tez, xavfsiz va samarali yetkazib berishni ta’minlashga qaratilgan. Loyihaning asosiy maqsadi Markaziy Osiyo mamlakatlari (jumladan, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston) hamda Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida agrar mahsulotlar logistika zanjirini shakllantirish va tezkor eksportni ta’minlash bo‘lib, uning vazifalari quyidagicha:

1. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini tezkor yetkazib berish uchun logistika tizimini yaratish.

-temir yo‘l orqali maxsus refrijerator vagonlar bilan mahsulotlarni Rossiyaga yetkazish.

-tashish vaqti va xarajatlarini kamaytirish.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

2. Eksport jarayonlarini soddalashtirish va samaradorligini oshirish.

- bojxona va sanitariya nazoratini yagona tizimda amalga oshirish.

- “Bir darcha” tamoyilini joriy etish orqali hujjat aylanmasini qisqartirish.

3.Markaziy Osiyo mamlakatlari agrosanoat mahsulotlarining Rossiya bozoridagi ulushini oshirish.

-mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun barqaror eksport kanallarini yaratish.

-mahsulotlarni qadoqlash, saqlash va transportirovkada xalqaro standartlarga moslashtirish.

4. Markaziy Osiyodagi logistika infratuzilmasini rivojlantirish.

- agroekspress yo‘nalishlari bo‘ylab zamonaviy logistika markazlari (hub) qurish.

- saqlash, qayta ishlash va transport xizmatlarini rivojlantirish.

5. Ta’minot zanjiridagi raqamli integratsiyani yo‘lga qo‘yish.

- yuklarni kuzatish va nazorat qilishning raqamli platformalarini yaratish.

- “E-tracking” (yuklarni elektron kuzatish) va “paperless trade” (qog‘oz hujjatsiz savdo yoki raqamli savdo jarayonlari) tizimlarini joriy etish.

Shu bilan birga, ilgari surilgan tashabbulardan yana biri bu-avtomobil, temir yo‘l va aviatsiya aloqalari sohasida milliy dasturlarni uyg‘unlantirish uchun Markaziy Osiyo davlatlarining “Transport-logistika konturini ishlab chiqish” ilgari surildi.

Markaziy Osiyo mintaqasi geostrategik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va transqit’a transport yo‘laklarining chorrahasida joylashganligi bilan jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo davlatlarining “Transport-

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

logistika konturini ishlab chiqish” tashabbusi mintaqaviy barqaror rivojlanish va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ushbu tashabbusning asosiy maqsadi-mintaqaviy logistika zanjirlarini muvofiqlashtirish, transport jarayonlarini raqamlashtirish, E-tracking va paperless trade tizimlarini joriy etish orqali savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishdan iboratdir. Shu bilan birga, transport-logistika konturini ishlab chiqish orqali Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro savdo tizimida o‘zining raqobatbardosh o‘rnini mustahkamlashi kutilmoqda.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasida transport-logistika xizmatining o‘zgarish dinamikasi[5]

Yillar / Xizmat turi	2021	2022	2023	2024
Temir yo’l transporti	72.0 mln tonna	73.4 mln tonna	73.7 mln tonna	73.9 mln tonna
Havo transporti	1 420,2 mln tonna	1 420,9 mln tonna;	1 455,7 mln tonna;	1 521,2 mln tonna.
Avtomobil trasnporti	1 282,0 mln tonna;	1 284,1 mln tonna;	1 322,0 mln tonna;	1 385,5 mln tonna.
Tashqi savdo aylanmasi (eksport+import)	$42,2mlrd	$50,5mlrd	$63,5mlrd	$65,9mlrd

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar mamlakatning transport tizimining yillar kesimida yuk tashish salohiyatini ko‘rsatadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu davrda iqtisodiyotda transport-logistika sektori tez rivojlanayotgan va o‘sishning asosiy drayveri (ayniqsa tashqi savdo aylanmasida) sifatida shakllanmoqda.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, 2024-yil yakuni.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shu bilan birga, “Uzbekiston-2030” strategiyasida professional ta’lim tizimini rivojlantirish orqali o‘quvchi va talablarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish masalasi ilgari surilgan. Bu yo‘nalishda nafaqat oliy ta’lim tizimida balki o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlashda davlat grantini axborot texnologiyalari, qurilish yo‘nalishlari bilan birgalikda aynan transport va logistika yo‘nalishlarida 100 foizga yetkazish alohida belgilab ko‘yildi. Bu borada quyidagi yo‘nalishlarda amaliy ishlarni tashkillashtirish lozim bo‘ladi:

-mamlakatimizda logistika sohasining o‘rta bo‘g‘in kadrlariga bo‘lgan ejtiyojini real baholash va xodimlar yetishtirish bo‘yicha (logistika koordinatorlari, dispetcherlar, omborlar bo‘yicha muhandislar, eksport-import hujjatlari mutaxassisi) manzilli ishlarni tashkil etish;

- erkin iqtisodiy zonalar joylashgan hududlarda mahalliy logistika mutaxassislarini maqsadli tayyorlash va raqobatbardoshlikni oshirish;

- “erkin iqtisodiy zona-universitet-kollej-logistika markazi” modeli asosida kadrlar migratsiyasini kamaytirish, mahalliy bandlikni hamda erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish;

-logistika va transport sohasida zamonaviy ta’lim markazlarini tashkil etish;

-xorijiy tajriba asosida kadrlar malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish;

-logistika boshqaruvi, raqamli texnologiyalar va xalqaro savdo sohalarida mutaxassislar tayyorlashni kuchaytirish.

2-jadval

Transport-logistika sohasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar [6]

№	Moslashtirilgan omillar juftligi	Ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta’sir yo‘nalishi	Natija
1	Iqtisodiy-infratuzilmaviy	-avtomobil va temir yo‘l tarmoqlarini kengaytirish va sifat darajasini oshirish; - logistika markazlari, xablar va ombor xo‘jaliklari faoliyatini	bandlik oshadi, eksport salohiyati mustahkamlanadi.

[6] Muallif ishlanmasi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

		tizimlashtirish; - chegara, bojxona ma'murchiligini soddalashtirish va terminallar tashkil etilishini rag'batlantirish.	
2	Iqtisodiy-hududiy	- xalqaro transport koridorlari va tranzit salohiyati ortishi; -hududiy ixtisoslashuv, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilishi.	Barqaror mehnat bozori va xalqaro iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi.
3	Iqtisodiy – innovatsion	-raqamli logistika (WMS, TMS, ERP) va avtomatlashtirilgan omborlar xizmatini joriy etilishi; -sun'iy intellekt va Big Data; -elektron bojxona tizimiga va elektron savdo logistikasiga bosqichma-bosqich o'tish.	Logistika xarajatlari kamayadi, shaffoflik oshadi.
4	Tashkiliy – innovatsion	-logistika mutaxassislar malaka sifatini oshirish va o'rta bo'g'in kadrlar ulushini ko'paytirish; -ta'lim va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish orqali mehnat unumdorligiga erishish hamda ishchi kuchining hududiy joylashuvini ta'minlashga e'tibor qaratish.	xizmat sifati va boshqaruv samaradorligi oshadi, sog'lom raqobat muhiti shakllanadi.
5	Iqtisodiy-ekologik	-yoqilg'i samaradorligini oshrish hamda uglerod chiqindilarini kamaytirishga erishish; -yashil transport va ekologik me'yorlarga qat'iy rioya etishni ta'minlanishi.	xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayadi, qulay investitsion muhit yaratiladi.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan omillar tizimi iqtisodiy rivojlanishning kompleks va o'zaro bog'liq yo'nalishlarini yoritadi. Har bir omil alohida ahamiyatga ega bo'lsa-da, ular o'zaro integratsiyalashgan holda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy tizimni shakllantiradi. Birinchidan, transport-logistika tizimida iqtisodiy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

va infratuzilmaviy omillar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unligi iqtisodiy o‘sish natijalarining jamiyat farovonligiga ta’sirini belgilaydi. Iqtisodiy barqarorlik aholi bandligi, ijtimoiy tenglik, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari sifatiga bevosita ta’sir qiladi.

Ikkinchidan, iqtisodiy va hududiy omillar o‘zaro to‘ldiruvchi mexanizmlar sifatida transport-logistika tizimi samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, ushbu tizimini rivojlantirish omillari O‘zbekiston mintaqalarida bir xil darajada namoyon bo‘lmaydi. Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy salohiyat, infratuzilma, aholining daromad darajasi, investitsion faollik va raqamli texnologiyalarni joriy etish sur’atlari farqlari bu sohaning rivojlanishida turlicha natijalar beradi. Shu sababli hududiy omillarni tahlil qilish transport-logistika tizmining barqaror rivojlantirish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Uchinchidan, iqtisodiy va innovatsion omillar birgalikda iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini belgilaydi. Innovatsion rivojlanishning iqtisodiy mohiyati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni tatbiq etish, raqamli xizmat ko‘rsatish modeliga o‘tish bilan ifodalanadi.

To‘rtinchidan, tashkiliy va innovatsion omillarni joriy etish samarali tashkiliy tuzilmani talab etadi, boshqaruv jarayonlarining elastikligi va moslashuvchanligi esa yangiliklarni tez tatbiq etish imkonini beradi. Drucker (2007) fikricha, innovatsiya – bu faqat texnologik yangilik emas, balki tashkilot ichidagi boshqaruv madaniyatini o‘zgartiruvchi strategik jarayondir. Shunday qilib, innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kuchli tashkiliy infratuzilma zarurdir[7].

Beshinchidan, transort-logistika tizimida bugunki kunning dolzarb muammolaridan bo‘lgan iqtisodiy va ekologik omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omillar ayniqsa yashil iqtisodiyot konsepsiyasida dolzarb bo‘lib, yoqilg‘i samaradorligini oshrish hamda uglerod chiqindilarini kamaytirishga erishish, yashil transport va ekologik me’yorlarga qat’iy rioya

[7] Piter Druker. (2000y) Logistics and Supply Chain Management

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

etishni ta’minlash orqali ekologik barqarorlik ta’minlanadi. Natijada, O‘zbekiston tadbirkorlarini xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayadi hamda qulay investitsion muhit yaratiladi.

XULOSA O‘zbekiston iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan davrda raqamli logistika tizimlariga o‘tish mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli logistika-bu transport, ta’minot zanjiri va inventarizatsiya jarayonlarini raqamli texnologiyalar orqali boshqarish bo‘lib, u samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Raqamli logistika tizimlari yordamida O‘zbekistonning transport va ta’minot zanjirlari yanada shaffof, tezkor va boshqarilishi qulay bo‘ladi. Masalan, RFID texnologiyalari, IoT qurilmalari, bulutli xizmatlar va Big Data analitikasi yordamida tovarlar harakati real vaqtda kuzatilishi mumkin. Bu esa noto‘g‘ri yetkazib berishlarni kamaytirish, ombor zaxiralarini optimallashtirish va xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, raqamli logistika tizimlariga o‘tish iqtisodiyotdagi raqamli transformatsiya jarayonini tezlashtiradi va mamlakatning global iqtisodiy integratsiyasida muhim rol o‘ynaydi. Elektron ta’minot zanjiri (e-SCM) orqali kompaniyalar va davlat tashkilotlari samarali hamkorlik qila oladi, bu esa O‘zbekistonni mintaqaviy va global bozorlar bilan yanada integratsiyalashgan tizimga olib keladi.

Shuningdek, raqamli logistika tizimlarini joriy etish bilan birga, malakali kadrlar tayyorlash zarurati ham dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu sohada mutaxassislar logistika jarayonlarini avtomatlashtirish, analitik vositalardan foydalanish, raqamli platformalarni boshqarish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish bo‘yicha yuqori kompetensiyaga ega bo‘lishlari lozim. Bu esa nafaqat sohaning samaradorligini oshiradi, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish va bandlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони “ЎЗБЕКИСТОН — 2030” СТРАТЕГИЯСИ.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2025 yil 09 oktabr Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan "Markaziy Osiyo - Rossiya" formatidagi ikkinchi sammitdagi nutqi.

3. Adam Smit (1776 y) An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations.

4. Piter Druker. (2000y) Logistics and Supply Chain Management.

5. Б.А.Аникин. (2013 г) Основы логистики.А.М.Гаджинский (2007 г) учебник Логистика.

6. Л.Б.Миротин (2010 г) Инновационные процессы в логистике.

7. Z.Qo‘chqarov (2015 y) “Raqamli iqtisodiyot logistikasi” mavzusida davra suhbatida ma'ruzasi.

8. G’.Samatov (2025 y) “YAQIN KELAJAKDA LOGISTIKA SOHASIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR” nomli maqolasi.

9. Baumol, W. J. (1967). Macroeconomics of Unbalanced Growth: The Anatomy of Urban Crisis. American Economic Review, 57(3), 415–426. “RAQAMLI IQTISODIYOT” ILMIY-ELEKTRON JURNALI | 13-SON | 2025 WWW.INFOCOM.UZ 1706

10. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси (2024). Ўзбекистон Республикасининг асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари бўйича йиллик ҳисобот. Тошкент: www.stat.uz.